



XORAZM VILOYATIDA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARI INFRATUZILMA TARMOQLARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Qobulov Ozodbek O'ktamboy o'g'li

Urganch davlat universiteti Menejment va marketing
kafedrasi stajor-o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatida xususiy tibbiyot muassasalari infratuzilma tarmoqlarining holati va ularning rivojlanish xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tibbiyot, tibbiyot muassasasi, infratuzilma, statsionar tibbiyot muassasasi.

Bugungi kunda Xorazm viloyatida xususiy tibbiyot muassasalari infratuzilma tarmoqlari o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu muassasalar sifatlik tibbiy xizmatlar ko'rsatishda alohida o'rinni egallaydi. Ya'ni, viloyatda jami 491 ta xususiy tibbiyot muassasalari mavjud bo'lib, ulardan 402 tasi ambulator va 89 tasi statsionar sharoitda, 4 tasi chet el qo'shma korxonalari va 68 turdagi ixtisosliklar bo'yicha aholiga malakali tibbiy xizmat ko'rsatib kelmoqda. Shularda jami 2012 ta shifo o'rin mavjud. Xususiy sektorda jami 2998 nafar ishchi-xodim, shundan 1145 nafar shifokor, 1067 nafar hamshira va 812 nafar boshqa xodimlar faoliyat yuritadi. Mazkur muassasalar faoliyatini shahar va tumanlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, ya'ni Urganch shahrida 169 ta, Urganch tumanida 42 ta, Hazorasp tumanida 33 ta, Xiva shahrida 37 ta, Xiva tumanida 16 ta Bog'ot tumanida 23 ta, Xonqa tumanida 33 ta, Shovot tumanida 31 ta, Gurlan tumanida 36 ta, Yangibozor tumanida 14 ta, Qo'shko'pir tumanida 27 ta, Yangiariq tumanida 22 ta Yangibozor tumanida 14 ta, Tuproqqal'a tumanida 8 ta xususiy tibbiy korxonalar mavjud. Shular tarkibidan statsionar tipidagi xususiy muassasalar alohida o'rinni egallaydi (1-jadval).



**1-jadval. Statsionar tipidagi xususiy muassasalar to'g'risidagi
shahar-tumanlar kesimida ma'lumot [2]**

Hududlar nomi	Soni va tarkibi haqida ma'lumot
Urganch shahri	28 ta statsionar tibbiyot muassasasida 633 shifo o'rin
Hazorasp tumani	5 ta statsionar tibbiyot muassasasida 84 shifo o'rin
Xiva shahri	6 ta statsionar tibbiyot muassasasida 238 shifo o'rin
Xiva tumani	3 ta statsionar tibbiyot muassasasida 46 shifo o'rin
Bog'ot tumani	4 ta statsionar tibbiyot muassasasida 82 shifo o'rin
Xonqa tumani	3 ta statsionar tibbiyot muassasasida 110 shifo o'rin
Shovot tumani	6 ta statsionar tibbiyot muassasasida 120 shifo o'rin
Gurlan tumani	10 ta statsionar tibbiyot muassasasida 188 shifo o'rin
Yangibozor tumani	4 ta statsionar tibbiyot muassasasida 60 shifo o'rin
Qo'shko'pir tumani	5 ta statsionar tibbiyot muassasasida 144 shifo o'rin
Yangiariq tumani	3 ta statsionar tibbiyot muassasasida 48 shifo o'rin
Tuproqqal'a tumani	1 ta statsionar tibbiyot muassasasida 8 shifo o'rin

Ushbu 1-jadvalga asosan, statsionar tipidagi xususiy muassasalar aholiga o'z xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Shuningdek, xususiy muassasalar 2024 yilga kelib, 491 ta xususiy tibbiyot muassasalari 68 turdagi ixtisosliklar bo'yicha aholiga malakali tibbiy xizmat ko'rsatib kelmoqda, shundan 244 ta korxona ya'ni 54 foiz faqat stomatologiya ixtisosligi tashkil etadi va 110 ta korxona esa ko'p tarmoqli nodavlat tibbiyot korxonalari (2-3 ta yoki undan ko'p ixtisoslikdan ega bo'lgan) hisoblanadi. Ixtisosliklar bo'yicha ular quyidagicha taqsimlanadi:



- 244 tasi stomatologiya ixtisosligi (tish kasalliklari);
- 74 tasi terapiya ixtisosligi (ichki organlari kasalliklari);
- 56 tasi kardiologiya ixtisosligi (yurak kasalliklari);
- 11 tasi gastroenterologiya ixtisosligi (oshqazon-ichak kasalliklari);
- 82 tasi nevrologiya ixtisosligi (asab tizimi kasalliklari);
- 34 tasi pediatriya ixtisosligi;
- 66 tasi ginekologiya ixtisosligi;
- 3 tasi akusherlik-ginekologiya (tugʻruq kompleksi) ixtisosligi;
- 31 tasi xirurgiya ixtisosligi (jarrohlik yoʻli bilan davolaniladigan);
- 11 tasi abdominal xirurgiya ixtisosligi;
- 31 tasi laparoskopik xirurgiya ixtisosligi;
- 39 tasi LOR ixtisosligi (tomoq, burun va quloq kasalliklari);
- 16 tasi oftalmologiya ixtisosligi (koʻz kasalliklari);
- 30 tasi urologiya ixtisosligi (siydik ajratish tizimi kasalliklari);
- 15 tasi dermatologiya ixtisosligi (teri kasalliklari);
- 68 tasi fizioterapiya ixtisosligi;
- 105 tasi klinik laboratoriya ixtisosligi (PSR 6 ta);
- 124 tasi UTT ixtisosligi (ultratovush tashxisi UZI);
- 29 tasi tibbiy radiologiya (8 ta magnit-rezonansli tomografiya MRT va 9 ta kompyuterli tomografiya - KT va 12 ta rentgenologiya).

Shu bilan birgalikda, xorijiy investorlarga keng imkoniyatlar yaratilishi natijasida viloyatda 4 ta xorijiy investitsiya ishtirokidagi xususiy tibbiyot muassasalari faoliyat olib bormoqda. Jumladan, xorijiy investitsiya ishtirokidagi “SURGE MED” MChJ qoʻshma korxonasi (Rossiya) xorijiy hamkorlarning (400 ming AQSh dollari) mablagʻlari evaziga bunyod etilgan. “NEPHROCARE HEALTH SERVICES CENTRAL ASIA” MChJ DXSh Gemodializ markazi Urganch va Bogʻot tumanlarida (Investor Sukesh Chandra Gain Hindiston 2 mln. AQSh dollari) xorijiy hamkorlarning evaziga bunyod etilgan. Turkiyaning investorlari (Savash Aydugan) Urganch shahrida loyiha qiymati 1.5 mln. AQSh dollari boʻlgan Ekstrakorporal urugʻlanish (EKU) xizmatini “IKIZLER A” MChJ



tomonidan tashkil etildi. Nodavlat tibbiyot muassasalari tomonidan 2023 yilda jami 604 nafar (Turkmaniston, Qozog'iston, Rossiya, Moldova, Pokiston, Turkiya, Hindiston, Janubiy Koreya, Xitoy, Tojikiston va hakoza) chet el fuqarolariga tibbiy xizmat ko'rsatilgan.

2024 yilda sog'liqni saqlash xususiy sektorida jami 32 ta loyihalarni amalga oshirish, shundan 24 ta yangi xususiy tibbiyot muassasasi, 8 ta xususiy tibbiyot muassasalari o'z faoliyatini kengaytirish va 224 ta qo'shimcha yangi ish o'rin yaratilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, talab yuqori bo'lgan tor soha ixtisosliklari bo'yicha yangi yo'nalishlar tashkil etishga hamda mavjudlarining faoliyatini kengaytirishda viloyatning ko'p yillik kasalliklar ko'rsatkichlarini tahlili asosida xususiy tibbiyot muassasalarida kardiologiya, nevrologiya, endokrinologiya, urologiya, jarrohlik va boshqa tor yo'nalishlarini kengaytirish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, viloyatda xususiy tibbiyot muassasalarining shakllanishi DXSh (davlat xususiy sheriklik) shaklida ham taraqqiy qilib bormoqda. Ya'ni, bu borada viloyatda davlat xususiy sheriklik muassasalari quyidagi soha va subyektlardan iborat bo'ladi (2-jadval).

**2-jadval. Hozirgi kunda viloyatda davlat xususiy sheriklikka asoslangan xususiy
tibbiyot muassasalari haqida ma'lumot [2]**

	Tadbirkorlik subyektining nomi (xususiy sherik)	Loyihaning nomi
	“JO‘ShQINBEK ShIFO” MChJ	Tibbiyot markazi
	Nephrocare Health Services Pvt. Ltd. (Hindiston)	Gemodializ xizmatini tashkil etish
	“YaNGIARIQ SAMIRA SOFIYa FARM” MChJ	Tibbiy diagnostika markazi
	“TRUST COOPERATION POWER” MChJ	Reabilitatsiya va telemeditsina markazi



Ushbu 2-jadvalga asosan, jami davlat xususiy sheriklikka asoslangan 4 ta xususiy tibbiyot muassasalari faoliyat yuritadi. Unga asosan, Urganch tumanida 2 ta, Yangiariq tumanida 1 ta va Urganch shahrida 1 ta shunday muassasalar tashkil etiladi.

Fikrimizcha, viloyatda xususiy tibbiyot muassasalari infratuzilma tarmoqlarining rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- xizmatlarni kengaytirish.
- elektron tibbiy yozuvlarni joriy etish.
- xizmat sifatini yaxshilash.
- yangi texnologiyalarni joriy etish.
- internetda tibbiy muassasani targ'ib qilish.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tibbiy muassasaning puxta o'ylangan onlayn reklamasi yangi bemorlarni jalb qiladi, brend xabardorligini oshiradi va sog'liqni saqlash bozorida pozitsiyani mustahkamlaydi. Buning uchun maqsadli auditoriya va joylashishni aniqlash, shuningdek, talab qilinadigan xizmatlarni aniqlash uchun bozorni tahlil qilishdan boshlash kerak. Bu orqali bemorlarning qoniqish darajasi, rentabelligi va mijozlar bazasining o'sishini tahlil qilish orqali yangi yo'nalishlarni amalga oshirish samaradorligi baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лепский В.В. Модель разработки стратегии развития медицинского учреждения. // УПРАВЛЕНИЕЦ, 2018, Том 9, №3. - с. 40.
2. Xorazm viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasi ma'lumotlari
3. <https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>